

## SMTda Hindiston Mudofaa tadqiqotlari va tahlili instituti direktori bilan uchrashuv bo'lib o'tdi



Joriy yil 29 oktyabrda SMTda parlament saylovlarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish uchun O'zbekistonga tashrif buyurgan Hindiston Mudofaa tadqiqotlari va tahlili instituti (IDSA) bosh direktori Sujan Chinoy bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Konstruktiv muloqot chog'ida O'zbekiston-Hindiston munosabatlarining hozirgi holati va ularni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi ekspert muloqotini har tomonlama mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.



Sujan Chinoy parlament saylovlarining tashkil etilish darajasini yuqori baholadi. Uning soʻzlariga koʻra, umumiy ovoz berish Oʻzbekistonda demokratiya va modernizatsiya jarayonlari oldinga siljishining yaqqol belgisi boʻldi. "Soʻnggi yillarda bunday ijobiy tendensiyalar respublika uchun odatiy holga aylanib bormoqda," - dedi IDSA direktori.

Hindiston instituti direktori Oʻzbekiston-Hindiston munosabatlari haqida soʻz yuritar ekan, ikki tomonlama aloqalar ijobiy surʼat bilan rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Uning soʻzlariga koʻra, bunday tendensiya oliy va yuqori darajadagi ishonchli muloqot, savdo-iqtisodiy va ilmiy-innovatsion sheriklikni mustahkamlashda oʻz ifodasini topmoqda.

Shu bilan birga, mehmon hamkorlikning hali foydalanilmayotgan ulkan salohiyatini yuzaga chiqarish uchun Oʻzbekiston-Hindiston ekspert muloqotini izchil kuchaytirish zarurligini taʼkidladi. Uning fikricha, ekspertlar hamjamiyati oʻzaro manfaatli sheriklikning yangi yoʻnalishlarini aniqlashda koʻproq tashabbuskorlik namoyon etishi lozim.

*IDSA 1965-yilda tashkil etilgan Hindistonning yetakchi tahliliy markazi boʻlib, Nyu-Dehli shahrida joylashgan. Institut xalqaro munosabatlar, ayniqsa, mudofaa, strategiya va xavfsizlik sohalarida ilgʻor tadqiqotlar olib boradi.*